

## SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLLIKNI OSHIRISH SHART-SHAROITLARI VA OMILLARI (Namangan viloyati misolida)

*Xakimova Go‘zal Akbar qizi*

*Namangan muhandislik-qurilish instituti, Namangan, O‘zbekiston*

2022–2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan kelib chiqib korxona iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish masalalarini o‘rganish.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Jahon hamjamiyatiga respublikaning faol integratsiyalashuvi iqtisodiy islohotlarni o‘tkazishda muhim rol o‘ynadi.

Boshqacha qilib aytganda, biz O‘zbekistonni ishlab chiqarishda innovatsiya va intellektual hissanning yuqori ulushi bo‘lgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, zamonaviy va global bozorda raqobatbardosh sanoatga, shuningdek, qulay investitsiyaviy va ishchanlik muhitiga ega jadal rivojlanayotgan mamlakatga aylantirishimiz lozim.

Qo‘yilgan maqsadlarga respublikamizni rivojlanishning innovatsion modeliga to‘liq o‘tkazmasdan turib erishish mumkin emas, bu mamlakatda innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning hamda davlat boshqaruvi, iqtisodiyot ustuvor tarmoqlari va ijtimoiy sohaga innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni amalda joriy qilishni rag‘batlantirishning samarali tizimini yaratish zaruratini taqozo etadi.

Mavjud muammolarni hal qilish, shuningdek, innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash, innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar, ilmiy yutuqlarni joriy etishni rag‘batlantirishning institutsional va tashkiliy-huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirish maqsadida 2017 yil 29 noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida” gi PF-5264-son Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmonga innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni keng joriy etish borasida ma’muriy islohotlar kontseptsiyasini amalda ro‘yobga chiqarish bo‘yicha muhim qadam sifatida qarash mumkin.

Farmon bilan strategik rejalshtirish tizimini yaratish, davlat boshqaruvining innovatsion shakllarini amalga kiritish, fan va innovatsiya faoliyatini rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini shakllantirish, investitsiyalarni keng jalg qilish, huquqiy bazani takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ijtimoiy va iqtisodiy hayotning dolzarb sohalariga ilg‘or texnologiyalarni faol joriy etish kabi mamlakat innovatsion rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari belgilandi.


Keyingi yillarda Namangan viloyatida innovatsion faoliyatni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shunga ko‘ra, ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion faollikni baholash bo‘yicha korxonalarning statistik hisobotlari hamda ekspress baholash asosida innovatsion faoliyatning asosiy ko‘rsatkichlari tahlil etildi.

Tahliliy ma’lumotlarga e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, respublikamizda innovatsion faoliyatning institutsional asoslarini takomillashtirish va uning

rag‘batlantiruvchi tizimini rivojlantirish natijasida korxonalarda innovatsion faollikni oshirishga motivatsiya ham o‘zgarmoqda.

### Namangan viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi

(jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan % da)



Ishlab chiqaradigan yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish holatini tahlil qilganimizda, ko‘rish mumkinki, aroq, konyak spirti va vino mahsulotlari ishlab chiqarishda pasayish kouzatilgan. Paxta lenti, un va o‘simlik yog‘i ishlab chiqarishda esa birmuncha o‘sish ta‘minlangan.


1-jadval

### Ishlab chiqaradigan yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

	2022	2023	Farqi (+,-)
Paxta lenti, ming tonna	3,1	1,9	-1,2
Chigit - ming tonna	59,2	47,9	-11,3
Paxta tolasi, ming tonna	28,2	36,0	7,8
Omuxta yem, ming tonna	54,8	21,3	-33,5
Aroq, ming litr	0,0	0,0	0
O’simlik yog‘i (tozalangan), ming tonna	11,3	10,2	-1,1

2-diagramma

**2023 yilda ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**



**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da.**

2022-yil yanvar-dekabr

80,0 % 20,0 %



Xorijiy korxonalar  
Viloyat korxonalari

2023-yil yanvar-dekabr

81,2 % 18,8 %



Xorijiy korxonalar  
Viloyat korxonalari

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dasturga kiritilgan 91 ta loyiha bo'yicha 2107,7 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi.

2-jadval


**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari**

	2022	2023
Loyihalar soni, birlik	131	91
Korxonalar soni, birlik	72	73
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm	1 514,0	2107,7
Eksportga qilingan mahalliylashtirilgan mahsulot hajmi, ming AQSH doll.	19,3	12,2
Yaratilgan yangi ish o'rnlari, birlik	1 246	758

Bugungi kunda viloyatda 7888 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ularidan 1784 tasi Namangan shahriga, 121 tasi Mingbulooq, 377 tasi Kosonsoy, 391 tasi Namangan, 234 tasi Norin, 235 tasi Pop, 349 tasi To'raqo'rg'on, 328 tasi Uychi, 262 tasi Uchqo'rg'on, 202 tasi Chortoq, 221 tasi Chust hamda 225 tasi Yangiqo'rg'on tumanlariga to'g'ri keladi. 2023 yilda viloyatda 852 ta sanoat sohasida korxonalar yangi tashkil etilgan.

3-diagramma

### **Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni, birlikda**



Albatta istiqlol yillarida mamlakatimizda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari kabi sanoat tarmoqlari ham jadal rivojlangani holda neft va gaz, kimyo sanoati, avtomobilsozlik sanoati, qurilish materiallari va farmatsevtika sanoati kabi yangi-yangi sanoat tarmoqlari shakllangani hamda rivojlangani holda bugungi kunda jahon



bozoriga “O’zbekistonda ishlab chiqarilgan” tamg‘asi ostida minglab sanoat tovarlari taklif qilinmoqda.

Ammo, korxona innovatsion salohiyat darajasi muayyan dinamikada bo‘lib, undagi o‘zgarishlar nafaqat o‘sishga, balki kamayishga ham olib kelishi mumkin. Demak, innovatsion salohiyat dinamikasi darajasi, unga turli omillarning ta’siri natijasida vujudga keladi. Demak, sanoat korxonasining innovatsion imkoniyatlarini to‘liq va ob’ektiv baholash vazifasi, birinchidan, innovatsion salohiyatni tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlar tarkibini aniqlash, ikkinchidan esa, ularga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning ta’sir etish darajasini o‘lchashdan tashkil topadi.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1. O’zbekiston Respublikasining [«Innovatsion faoliyat to‘g‘risida»](#) Qonuni. -T., 2020.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son [Farmoni](#)
3. Vaxabov A.V., Xajibakiev SH.X., Mo’minov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O’quv qo’llanma / prof. A.V.Vaxabovning umumiy tahriri ostida. - T.: «Moliya», 2010. 328 b.
4. Gozibekov D.G. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. - T.:«Moliya», 2003. - 332 b.
5. Xolmirzaev Ulug‘bek Abdulazizovich. Moliyaviy aktivlar hisobini yuritishda xalqaro standartlar qoidalarini qo’llash masalalari. Ilmiy monografiya. Toshkent – 2023.
6. Холмирзаев, У. А. (2022). КИСҚА МУДДАТЛИ ҚИММАТЛИ ҚОФОЗЛАРНИ АНАЛИТИК ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *Архив научных исследований*, 2(1).
7. Хакимов, Б., Талабоев, Х., & Холмирзаев, У. (2021). ВОПРОСЫ УЛУЧШЕНИЯ АНАЛИЗА ОБРАЩЕНИЯ ДОЛГОВОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ НАПРАВЛЕНИЯ. *Экономика и социум*, (6-2 (85)), 441-446.
8. Khakimov, B., & Kholmirzayev, U. (2020). IMPROVING CASH ACCOUNTING AND ANALYSIS ON THE BASIS OF INTERNATIONAL EXPERIENCES. *International Finance and Accounting*, 2020(1), 18.
9. Hakimov, B., Yunusov, M., & Holmirzayev, U. (2018). Elaboration of The Balance Sheet Liquidity Analysis-Requirements of The Period. *International Finance and Accounting*, 100.
10. Sirojiddinov, I., Xolmirzaev, U., & Axmadjonova, M. (2021). THE NEED AND FACTORS TO ACCELERATE THE DEVELOPMENT OF PRIVATE ENTREPRENEURSHIP. *Интернаука*, (21-5), 14-16.
11. Abdulazizovich, K. U. (2022). IMPROVING METHODOLOGICAL APPROACHES TO FINANCIAL ASSET ACCOUNTING. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, 16(4), 56-62.
12. Abdulazizovich, X. U. B. (2023). XALQARO QOIDALAR ASOSIDA QIMMATLI QOG’OZLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.
13. Abdulazizovich, K. U. B. (2023). Improvement Of Information About Accounts Receivable In Current Assets In The Balance Sheet Based On International Standards. *Journal of Survey in Fisheries Sciences*, 10(2S), 2849-2859.
14. Ubaydullaev, T., & Holmirzaev, U. (2018). PECULIARITIES OF TAXATION OF INDIVIDUALS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Экономика и социум*, (11 (54)), 54-57.

15. Qutbiddinovich, S. I., & Abdulazizovich, X. U. B. (2023). GAAP ASOSIGA QO'YILGAN MOLIYAVIY HISOB KONTSEPTSIYALARI. *Interpretation and researches*, 1(3), 42-50.
16. Kholmirzaev, U. B. A., & Ubaydullayev, T. A. (2023). Improving the classification of financial assets according to the economic content. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(1), 203-209.
17. O'g'li, J. E. S., & Abdulazizovich, X. U. B. (2019). Profits of housekeeping and its development. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 8(4), 419-423.
18. Abdullayevich, A. O., & Abdullajanovich, U. T. (2021, December). Development of small business and private entrepreneurship in Uzbekistan. In *Conference Zone* (pp. 123-128).
19. Xolmirzaev, U. B. A., & Madaliev, M. R. (2023). MOLIVIY HISOBTLARNING QAYTA KO 'RIB CHIQILISHIDA XALQARO TALABLARGA RIOYA ETILISHI ZARURLIGI. *Educational research in universal sciences*, 2(3), 424-432.
20. Khakimov, B. J., Alimov, B. B., Kholmirzayev, U. A., & Polechov, A. X. theory of Economic Analysis. *Tashkent" economics-finance"—2013*.
21. Gulshirin, J., & Abdulazizovich, X. U. B. (2022, March). INCREASING THE EFFICIENCY OF INVESTMENT IN THE DEVELOPMENT OF EXPORT DIVERSIFICATION IN THE REGION. In *Conference Zone* (pp. 277-281).
22. Abdulazizovich, K. U. (2023). POSITIVE ASPECTS OF THE CASH METHOD IN SMALL ENTERPRISES UNDER UNUSUAL CIRCUMSTANCES. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, 12(11), 38-47.
23. Xolmirzayev, U. A., & Xakimova, G. A. (2023). XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARDA DEBITOR QARZLARINING AYLANISHI TAHLILIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARDA DEBITOR QARZLARINING AYLANISHI TAHLILIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.
24. Холмирзаев, У. А. (2023). ДЕБИТОР ҚАРЗЛАРИНИ АЙЛANIШИ ТАХЛИЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ: ДЕБИТОР ҚАРЗЛАРИНИ АЙЛANIШИ ТАХЛИЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ.
25. Холмирзаев, У. А., & Самижонова, Ш. С. (2022). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТРАЖЕНИЯ ДЕНЕГ В БУХГАЛТЕРСКОМ БАЛАНСЕ. *Экономика и социум*, (5-2 (92)), 755-766.
26. Холмирзаев, У. А., & Камолдинов, О. О. (2022). АСПЕКТЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ ИНФОРМАЦИИ О ДЕБИТОРСКОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ ПО ОБОРОТНЫМ СРЕДСТВАМ В БУХГАЛТЕРСКОМ БАЛАНСЕ. *Экономика и социум*, (5-2 (92)), 767-779.
27. Khakimov, J. B., & Kholmirzayev, A. U. (2021). Positive Aspects Of Cash Method In Small Enterprises In The Context Of Pandemic. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(7).